

## BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI

**Olimov Saydullo Soxobjonovich**

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

E-mail: [sayd.olim.soxobjon55@gmail.com](mailto:sayd.olim.soxobjon55@gmail.com).

### ANNOTATSIYA

Bugun ilm-fan dunyosiga juda ko‘plab boshqaruvga oid adabiyotlar, ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Boshqaruv subyekti va obyektining salomatligi ekologiya bog‘liqligini ilmiy bilish, kelajak avlodga sog‘lom muhit meros qoldirish eng yuksak daraja ekanligi anglashidir.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv, ekologiya, diagnostika, agressiya, deviant, dixatomiya, onkologiya, xudbin.

### АННОТАЦИЯ

Сегодня в мире науке публикуется множество управленческой литературы и научных статей. Научное знание о том, что здоровье субъекта и объекта управления зависит от экологии, –это сознание того, что оставить здоровую окружающую среду следующему поколению –это высший уровень.

**Ключевие слова:** управления, экология, диагностика, агрессия, девиант, дихатомия, онкология, эгоист.

### ABSTRACT

Today, a lot of management literature and scientific articles are published in the world of science. The scientific knowledge that the health of the management subject and object depends on ecology is the realization that leaving a healthy environment to the next generation is the highest level.

**Keywords:** management, ecology, diagnosis, aggression, deviant, dichotomy, oncology, selfish.

Mavzuning dolzarbligi: Boshqaruv muammosini o‘rganish bugungi kunda xar qachongidan ancha ortgan. Bunga sabab insonlar davlatlar va diniy yo‘nalishlar o‘rtasidagi munosabatlar salbiy tomonga ortib borishida kuzatilmoqda. Bularning natijasi o‘laroq insonlar qurboni, eng achinarlisi bolalar o‘limiga sabab bo‘layotganidir. Dunyoda tinchlikni saqlab qolishga xarakterlar natijasiz bo‘lmoqda. Bunga sabab o‘zini iqtisodiy rivojlangan gegamonlarning o‘rinsiz “vote” lari tinchlikni

saqlashga xarakterlarini to'xtatmoqda. Yana bir ayanchli holat ekologiyaga qaxshatqich zarba berilmoqda. Yangi qurollanish poygasi yuzaga keldi. O'z qurol-yaroq omborlarini yangisi uchun bo'shatgani turli urushlar uyushtirilmoqda. Xalqaro Ekologiyani ximoyachisi deb yuqori maosh olayotgan xodimlari tuyaqushlar kabi boshini qum ostiga tiqib olmoqda. Rahbarlarda boshqaruvni turli urushlar va nizolarga sabab bo'lmisligi uchun ulani rahbarlik lavozimiga saylanmaslaridan avval ular bilan deagnostic profilaktik ishlar olib borish shart.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi[1. 49-modda 4-band].

Atrof muhitni asrashga bo'lgan munosabat dunyodagi eng ko'hna yaratilgan ilmiy asar zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" da keltirilganligi xech kimga sir emas.

Boshqaruv muammosi bilan ilmiy izlanishlar olib borgan F.Taylor, E.Meyo, A.Fayol, M.Veber, Urbanovichlar ishlari insonlarni boshqaruv soxasiga olib boriladigan samarali tadqiqotlar nazariy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiyalik psixolog tadqiqotchilar L.S.Vigotskiy, G.M. Andreyeva R. Nemov, V.M.Bexterev D.V.Parigin T.Yu.Bazarov psixologiya yo'nalishida ishlarini olib borgan[4.-19]

Boshqaruv muammosi bilan Markaziy Osiyoda renesans davrida yashab ijod qilgan juda ko'plab davlat arboblari va mutafakkirlar ilmiy meros qoldirganlar.

"Tuzuklar"da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda Amur Temur o'z davlatini, bir uchi Chin Mochin va ikkinchi uchi Shom xududida bo'lgan ulkan mamlakat bor-yo'g'i yettita vaziri bilan boshqargan. Uning fikricha: "Ishbilarmon, mardlikva shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab **tartibsiz**, va loqayd kishilardan yaxshidir"[2. b-40].

Rahbar shaxsini ilmiy tadqiq etishda Bassa-Dark "Agressivlik diagnostikasi", "KOS-2 Kommunikativli va tashkilotchilik" diagnostikasi, "Naturafil" metodikasi, Xarifordning "Lider" testini o'tkazish, T.Elersning "Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi"ni deagnostika metodi, T.Elersning "Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi"ni aniqlash metodi Shubertning "Tavakkalchilikka moillik"ni aniqlash metodi, kuzatuv, kontnet analiz metodlaridan foydalanib o'rganish maqsadga muvofiq. Insonlar turli qarama-qarshiliklar va manfaatlar to'qnash kelgan joyda shaxsiy manfaatni birinchi darajaga orttirib yuborish kuzatiladi. Ekologiyani zararlash mag'lubiyat sifatida qarash shakillansagina biz kelajakdagi eng katta mag'lubiyatni kechiktirgan bo'lar edik.

Bundan 650-700 yil avval davlatni boshqarish va rahbarlik tamoyillariga oid g'oyalar nihoyatda progressive bo'lgandir. Chunki bu tamoyillar hozirgi zamon

demokratik davlatlar xarakteriga mos keladi. Bu donishmandlarimizning rahbar uchun zarur bo'lgan fazilatlar, davlatni idora etish uslubi va rahbarlik odobiga doir fikrlari ulkan axamiyatga ega.[2. b- 40-41]

Bo'lg'usi rahbarlarda deviant xulq-atvorga moillikni bor yo'qligiga etibor ham qaratsa bu yo'nalishda ham koompleks diagnostic ishlar olib borish kerak. Agar bo'lg'usi rahbar shaxsining yaqin qarindoshlarining ham bunday og'ish holatlari nazoratga olinishi muhurligini kuzatilmoqda.

Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio – og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'z a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.[3].

E.Fromm (1900- 1980) tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan g'oyalar bilan hamohangdir (uning "neofreydizmga" rasmiy tegishliligini inobatga olmasak). E.Fromm fikricha, inson o'zi va tabiat o'rtasida uyg'unlikka intilib, ekzistensial qarama-qarshiliklarni yengib o'tishga majburdir. Bu - hayot va o'lim dixotomiyasi; bor imkoniyatlarini amalga oshirishga intilish va bu uchun hayot qisqaligi va uning o'rtasidagi nizodir; yolg'izlik hissiyoti va boshqa insonlarga yaqinlik o'rtasidagi qarama-qarshilik. [3]

Boshqaruv muammosini ilmiy jihatdan talqin etilganida ratsional fikr yurituvchilarni hokimiyat tepasiga chiqishini asoslovchi omillarga ko'p hollarda tayanamiz. Lekin tarixdan bizga ma'lumki ba'zan iratsional fikrlovchi shaxslarning ham hokimiyatni qo'lga kiritganligini shoxidi bo'lingan. Bunday vaziyatlarda adabiyotlarda ham masalan Makiavellining "Podishoh" asarida yaratganning inomi sifatida qayd etilgan.

So'ngi vaqtlarda xalqaro huquqlarga amal qilmaslik oddiy holga aylanib qolmoqda. Agar bo'lg'usi rahbarda insoniyatni kelajagi fojiasini his qila olsagina to'g'ri yo'ldan yurishga axd paydo bo'ladi. Abraxam Maslou yaratgan Extiyojlar peramidasining quyi pog'onalarida turuvchi shaxslarning rahbarlik lavozimlarida ishlashi dunyoda ekologik fojialarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Insoniyat go'yoki ona yer sayyorasiga shunchaki vaqtinchalik yashab ketadigan joydek munosabat shakillanmoqda. Asosiy yashash makoni boshqa sayyordada bordek tutish "hudbinlik" tark etish vaqti kelmadimikan.

Insoniyat dastlab penitsilin ixtiro qilgach kasalliklar ustidan mutloq g'alaba qildi deb quvonch uzoqqa bormadi. Bugun ekologik fojealar ta'sirida insonlarda immunitet tizimi pasayib ketishi turli xil yangi kasalliklar paydo bo'lmoqda. Bunday kasalliklarga chalinmasligiga qaysi rahbarni yoki boshqa insonga kim kafolat beradi. Qachonki inson qandaydir xavfni o'z tanasida his qilgandagina uning qanchalar xavfli ekani to'g'risida tafakkurida o'ziga hos tasavvur hosil bo'ladi.

Statistika ma'lumotlariga qaraganda turli darajada texnogen katastrofalari ro'y bergan xududlarda insonlarda turli darajada onkologik kasalliklarga moyillik darajasi yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Ba'zi bir kasalliklar avloddan-avlodga genetic jixatdan nasliy kasallik darajasiga yetmoqda. Shunday oila a'zosiga tarkibida inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi qurollarni qo'llashga munosabatini hech tasavvur qilib ko'rganmisiz? Taraqqiy etgan davlatlarda va rivojlanmaga davlatlardan farqi ekologiyasi va insonlar salomatligi bir-biridan tubdan farqlanadi. Eng rivojlangan davlatlarda buyrak yetishmovchiligi kasalliklari bilan chalinganlar soni ortib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan fikr va muloxazlardan biz boshqaruv sohasi haqida fikrlar yuritganimizda albatta ekologik muammolarni insoniyat omon qolishini kafolatlovchi muhim jabha ekanligiga ong va shuuriga to'liq singib ketmog'i darkor. Turli muammoli vaziyatlar yuzaga kelgan vaqtda albatta bu muammolarni yechimi bir necha bo'ladi. Shu yechimlar ichida imkon qadar ekologiyaga kam ziyon yetkazuvchu yo'llar tanlansa maqsadga muvofiqdir. Menejer sohasining tarkibiy qismiga ekologiyaga bog'liq boblar ham kiritishni davr talab qilmoqda. To'g'ri dunyoning turli davlatlarida EkoPartiyalar faoliyat yuritib kelmoqda. Ular faoliyatida ham ikkiyoqlama standartlar mavjudligi ularning obro'siga bo'lgan ishonchning pasaytirmoqda. Eng qadimgi yozma manba "Avesto"da ekologik tozalikka e'tibor qayd etilgan davr bilan hozirgi ekologiya qiyoslab tasavvur qilsak insoniyatga eng oliy ne'mat toza havo ekanini paradigmalari asosiysiga aylana edi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-2023.
2. Z.D.Hasanova Boshqaruv psixologiyasi [Matn] : darslik / Z.D. Hasanova – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy Durdoni nashriyoti, -2021. -228 b.
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
4. L.Ya.Olimov, O.R.Avezov, E.S.Eshov DEVIANT XULQ-ATVOR PSIXOLOGIYASI. O'quv qo'llanma. Buxoro-2017y. 173 b.
5. Olimov S.S. (2023) Talabalarda boshqaruv faoliyatining psixologik xususiyatlari. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАТЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ. 19-20.